

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova**

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....7

**I.Tuychiyeva, Z.Axunova**

Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....10

**D.R.Yuldasheva**

Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....14

**A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova**

Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati .....20

**I.I.Soliyev**

Oliy ta'lif muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari .....26

**Sh.D.Xonbabayev**

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari .....31

**M.S.Xoshimov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....36

**L.Z.Xolmurodov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....41

**A.Sh.Bazarbayeva**

Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....45

**N.Sh.Abdiyeva**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi .....54

**F.A.Boltayeva**

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....59

**M.E.Maziyayeva**

Maktabgacha ta'lifmda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish .....63

**D.D.Boymirzayeva**

Oliy ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari .....67

**M.O.Ismailova**

Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur .....71

**G.O.Shaxbazova**

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni .....75

**M.F.Bekchonova**

Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatları .....79

**X.A.Ibragimov**

Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari .....83

**A.T.Nazarov**

Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish .....88

**D.M.Xusanov**

O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati .....92

**Y.Y.Turakulov**

Ta'lifda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....96

**Sh.G'.Xasanov**

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatları.....102



УО'К: 37.018.43

**BO'LAJAK PEDAGOGLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA  
PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH**

**РАЗРАБОТКА МЕХАНИЗМА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА**

**DEVELOPMENT OF THE MECHANISM FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS FOR  
PEDAGOGICAL ACTIVITY BASED ON THE COMPETENCY APPROACH**

**Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti professori, p.f.d.

**Qurbanova Baxtixon Qo'chqarbayevna<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Annotatsiya**

So'nggi yillarda ta'limga yangicha yondashuvlar ta'sirida ta'limga muassasalari faoliyatini takomillashtirishning muhim belgisi sifatida kompetensiyaviy yondashuvni qaror toptirish muammosi tadqiq etilmoqda. Shu qatorda ta'limga belgilangan nazariyasi va amaliyotini barcha ta'limga muassasasi faoliyatining umumiyligi ilmiy-metodik asosda takomillashtirish kerakligini ko'rsatadi. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlanterish, shuningdek, hamkorlik pedagogikasining asosi, bo'lajak pedagoglarni hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlanterish xususida fikr bildirilgan.

**Аннотация**

В последние годы под влиянием новых подходов к образованию исследуется проблема определения компетентностного подхода как важного признака совершенствования деятельности образовательных учреждений. Кроме того, сложившаяся теория и практика образования показывают необходимость совершенствования деятельности всех образовательных учреждений на общей научной и методической основе. В данной статье высказывается мнение о разработке механизма подготовки будущих педагогов к педагогической деятельности на основе компетентностного подхода, а также основы социальной педагогики, развития умений будущих педагогов работать в сотрудничестве.

**Abstract**

In recent years, under the influence of new approaches to education, the problem of determining the competency-based approach as an important feature of improving the activities of educational institutions has been studied. In addition, the established theory and practice of education show the need to improve the activities of all educational institutions on a common scientific and methodological basis. This article expresses an opinion on the development of a mechanism for preparing future teachers for teaching activities based on a competency-based approach, as well as the basis of cooperative pedagogy, developing the skills of future teachers to work in cooperation.

**Kalit so'zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyatga tayyorlash, mexanizmini rivojlanterish, hamkorlik pedagogikasining asosi, hamkorlikda faoliyat, ko'nikmalarini rivojlanterish, ijtimoiy hamkorlik, jahon pedagogikasida hamkorlik, o'qituvchi hamda talabaning birgalikdagi faoliyati, hamkorlikning pedagogik mohiyati.

**Ключевые слова:** компетентностный подход, подготовка к педагогической деятельности, развитие механизма, основы совместной педагогики, совместная деятельность, развитие умений, социальное сотрудничество, сотрудничество в мировой педагогике, совместная деятельность учителя и ученика, педагогическая сущность сотрудничества.

**Key words:** competency-based approach, preparation for teaching activities, development of the mechanism, basics of joint pedagogy, joint activities, development of skills, social cooperation, cooperation in world pedagogy, joint activities of teacher and student, pedagogical essence of cooperation.

**KIRISH**

Bugungi kunda ta'limga yoshlarimizning zamonaviy ta'limga olish, turli sohalarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, jahon tajribalarini o'rganish, xorijiy ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etishi uchun barcha imkoniyatlarni mavjud. Bo'lg'usi pedagoglarning innovatsion, adaptatsion sharoitda ishslashini, tez o'zgaruvchan sharoitlarga nisbatan tezkor bo'lishni zamonning o'zi talab etilmoqda. Shu bois ham oliy ta'limga muassasalari bo'lajak pedagoglarning kompetentligini zamon

talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish, ta'limni tubdan isloh qilish, mazkur tizimni yangi sifat bosqichiga ko'tarishning muhim shartlaridan biridir. Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi va buni amalga oshirish uchun quydagilar asos bo'lmoqda:

birinchidan, ta'lim tizimida yangi va keng ma'noda ijtimoiy hamda pedagogik jarayonlarning jadal sur'atlarda amalga oshirilayotganligi;

ikkinchidan, umumiy, ommaviy pedagogik amaliyotning holati (o'qituvchi va ta'lim oluvchilarga yetarli darajada pedagogik qo'llab-quvvatlashning berilmayotganligi, ularning o'quv tarbiya jarayonidan qoniqmayotganliklari; o'qituvchilarning ta'lim oluvchilar bilan insonparvar va do'stona munosabatni tashkil etish malakalarining yetarli emasligi va h.k.);

uchinchidan, talabalarning ta'limiy yangi innovatsiyalarga nisbatan katta ehtiyoj sezishi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatini rivojlantirishda quydagilar nazarda tutilmog'i lozim:

- oliy ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, pedagogning kasbiy nufuzini oshirish;
- ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini tubdan o'zgartirish;
- ilg'or texnologiyalarni keng targ'ib etish va yangilarini yaratish;
- bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;
- ta'lim sifatini oshirish yuzasidan xalqaro hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish va b.

### **ADABIYOTLAR TAHЛИLI**

Jahon pedagogikasida kompetensiyaviy yondashuvga oid qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, V.Arshinov, M.Boguslavskiy, V.Budanov, V.Vinenko, L.Zorina, V.Ignatova, S.Kapitsa, E.Knyazeva, G.Malinetskiy, V.Matkin, L.Novikova, E.Pugacheva, N.Talanchuk, D.Trubetskoy, O.Fedorov, YU.SHaronin, A.Bochkarev, E.Kopilova, V.Petrova, O.Gataulina, G.Sumina, L.V.Surchalova, YU.V.Talagaev, R.Jonson, Sh.Sharon, R.Gane, Dj.Brigs, Levi Strosslarning tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv asosida hamkorlikda o'qitishning afzalliklari, o'qituvchi-ta'lim oluvchi hamkorligini tashkil etishning yetakchi g'oyalari o'z aksini topgan.

Xorijiy ta'lim nazariysi va amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish an'anaviy ta'limning muqobili sifatida keng tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish hisobiga ishtirokchilarning interfaolligi, o'zaro aloqadorligi va o'zaro mas'uliyati va uning takomillashuvini, guruh ishtirokchilarining konstruktiv o'zaro birqalikdagi harakatiga individual mas'uliyati va yo'nalganligini ta'minlaydi.

O'zbekistonlik olimlardan N.Azizzodjayeva[4], J.Yo'ldoshev[12], R.Safarova[12], B.Xodjayev[17], Sh.Abdullayeva[2], N.Dilova[8] singari olimlar tomonidan hamkorlik pedagogikasi, ta'lim oluvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyalari yoritib berilgan.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili (N.Dejnikova, I.Pervin[7], V.Dyachenko, D.Djonson, R.Djonson[9], R.Slatin[16], va boshqalar) shuni ko'rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishni tashkil etishda subyektlarning o'zaro birqalikdagi faoliyatda qo'yilgan maqsadga samarali erishishini ta'minlaydi. Bunday samaradorlik natijasida bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmi rivojlantiriladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirishda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish xususida nazariy muammolarini aniqlash va ularni tahlil qilish jarayonida tasniflash, tavsifiy, oppozitiv, qiyosiy, transformatsiya metodlardan foydalanilgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Pedagogik faoliyat, insoniyatni o'zgartirish va rivojlantirishning eng muhim vositasidir. Pedagogik faoliyat - bu bir qator tadbirlarning murakkab tashkil etilgan tizimi bo'lib, ularning har biri A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga ko'ra maqsad, motivlar, harakatlar va natijalarga ega. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyati uning ko'p funksiyali ekanligidir. Ilmiy-pedagogik faoliyatning bunday tuzilishi uchun yetarli asoslar mavjud. Yu.N.Kuliutkining fikriga

## PEDAGOGIKA

ko'ra, pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi uning "metafaollik", ya'ni boshqa faoliyatni, ya'ni talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish faoliyati ekanligidadir.<sup>1</sup>

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatlarini rivojlantirish, o'z navbatida, o'quvchilarni o'zlashtirishlariga qulaylik yaratish hamda ularning yangi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlashni talab qiladi. Bu o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy fikrleshga, bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishga ko'maklashadi.

Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda nazariy bilimlardan tashqari, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish, muammolarni hal qilish, kommunikativlik ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Birinchi navbatda, ushbu yondashuv asosida mashg'ulot jarayonida o'quvchilar faolligi ortadi va jamaoa bilan ishlash ko'nikmasi rivojlanadi.

Ikkinci navbatda, o'quvchilar darslarni oson o'zlashtiradilar, mashg'ulotlarda qo'llaniladigan noan'anaviy metodlar o'quv jarayonini o'zlashtirishda ahamiyatli rol o'yaydi. Virtual darsliklar, onlayn ta'lif platformalari va yangiliklardan foydalanish, o'quvchilarni motivatsiyalash va ularning o'zlashtirishlarini mustahkamlashga muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi navbatda, bo'lajak pedagoglar o'quvchilarning yangi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda faollik ko'rsatishga intilishadi. Bu esa, ta'lif usullarini yangilash, o'quvchilarga shaxsiy rivojlanish yo'llarini topishda yordam berish hamda ularning kreativlik va ijodiylik xarakterini rivojlantirishga olib keladi.

Umuman olganda, bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish, ta'lif sifatini oshirish uchun muhim. Bu, jamiyatni o'zlashtirish, yangi fikrlarni olib kelish va yangi yondashuv shakllarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratadi. Mana shu fikrlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, ta'lifni tashkil etishning mazkur shakllarini ahamiyati yuqori bo'lib, pedagogik jarayonning kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi ta'lif-tarbiya sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Asqarova O., Usmonboyeva M., Raxmatova X., Ehsonova F., Asqarova F. Pedagogika. Izohli lug'at. "Navro'z" nashriyoti- Toshkent: 2014. 67- b.
- Abdullaeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – Т.: Fan va texnologiya, 2017. – 178 bet.
- Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
- Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – Т.: TDPU, 2000. – 52 b.
- Арефьева О.М. Особенности формирования коммуникативных универсальных учебных умений младших школьников / О.М.Арефьева // Начальная школа плюс До и После. –2015. - №2. – С.28.
- Давыдов, В.В. Младший школьник как субъект учебной деятельности / В.В. Давыдов, В.И. Слободчиков, Г.И. Цукерман // Вопросы психологии. – 2010.- № 3-4. – С.23.
- Дежникова Н.С., Первич И.Б. Товарищеская взаимопомощь школьников. – М.: Педагогика, 1991. – 112 с.
- Dilova N.G'. Boshlang'ich ta'limda o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Nukus, 2018. – 152 s.
- Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and the use of technology. In J.M.Spector, M.D.Merrill, J. van Merriënboer, & M.Driscoll (Eds.), Handbook of research on educational communications and technology. – New York: Taylor & Francis, 2008. – Р. 1017-1044.
- Зимняя И.А. Педагогическая психология [Текст] / И.А. Зимняя. – М.: Логос, 2000. – 384 с.
- Ивин А.А. Искусство правильно мыслить. – М.: Просвещение, 2010. – 224 с.
- Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Т.: O'qituvchi, 2004. – 101 b.
- Реан А.А. Социальная педагогическая психология / А.А.Реан., Коломинский Я.Л. – СПб., 1999. – 32 с
- Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. – М.: РСФСР. ПФА, 2004. 8- изд. – 180 с.
- Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – Т.: O'zbekiston, 1997. – 415 b.
- Slavin R.E. Student teams and comparison among equals: Effects on academic performance and student attitudes. / R.E. Slavin. – Journal of Educational Psychology, vol. 70, 1978. – P. 532-538.
- Xodjayev B.X. Umumta'lif maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. –T., 2016. – 314 b.
- Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – Т.: O'qituvchi, 1996. – 488 b.
- Цукерман Г.А. Совместная учебная деятельность как основа формирования умения учиться: автореф. дис. ... докт. психол. наук. – М., 1992. – 39 с.

<sup>1</sup> Leontev A.N. Psixikani rivojlantirish muammolari. 4-nashr, - M., 1981-yil.